

**RAVSHAN ABDULLAO'G'LINING «RELSLAR UZRA YOTGAN ODAM»
PSIXOLOGIK ROMANINING TARIXIY, ILMIY VA BADIY JIHATLARI
HAQIDA**

Soatova Zarina Otabek qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti bakalavr talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola Serbiya va Bosniya-Gersogovina o'rtasida bo'lib o'tgan urush haqida ozarbayjon yozuvchisi tomonidan yozilgan romani tahliliga bag'ishlanadi. Asarning dastavval tarixiy, so'ngra badiiy jihatlari, jumladan, qahramonlarning hayot yo'li ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasi, Serbiya, Bosniya-Gersogovina, Xorvatiya, Iosip Broz Tito, Slobodan Milosevich, «jabrdiyda millat», etnik qirg'inbarot.*

Urush — hamma davrlarda ham insoniyat boshiga ulkan musibatlar solgan mash'um so'z bu...

Ravshan Abdullao'g'lining «Relslar uzra yotgan odam» deb nomlangan psixologik romani urush tufayli dunyoning turli burchaklariga mansub bo'lgan insonlarning taqdir yo'llari qanday qilib uchrashgani hamda ular guvoh bo'lgan ayriliq, zulm va taqdir zarbalari haqida hikoya qiladi. Gap shundaki, 1980-yilda Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasi rahbari Iosip Broz Titoning vafot etishi natijasida davlat inqirozga yuz tutdi. U qo'l ostida ushlab turgan markaziy hokimiyat parchalana boshladi. Ushbu davlat hududi juda ham murakkab bo'lib, unda bosniyalik musulmonlar, serblar, xorvatlar, makedonlar va turklar kabi bir qator millat vakillari istiqomat qilishgan. Ko'p sonli aholiga ega bo'lgan millatlarning mustaqillikka intilishi natijasida 1991-yil Sloveniya va Xorvatiya, 1992-yilda esa Bosniya va Gersogovina davlatlari mustaqillikka erishdi. Ammo 1980-yilda Serbiya hokimiyatiga kelgan Slobodan Milosevichning serblarni «jabrdiyda millat» deya ko'rsatishi va barcha serblarni birlashtirish g'oyasi natijasida Bosniyadagi serblar davlat mustaqilligini tan olmadi. Shu tariqa 1992-1995-yillar oralig'ida Bosniya va Serbiya davlatlari o'rtasida dahshatli urush bo'lib o'tdi. Asar qahramonlarining hayot yo'li ham aynan mana shu urush tufayli o'zgarib ketdi.

Roman o'z joniga qasd qilish maqsadida poyezd relslari uzra yo'l olgan ikki qahramon: Dorian va Farug ismli yigitlarning tasodifiy uchrashuvidan boshlanadi. Relslar nafaqat manzillarni, balki ularning taqdir yo'llarini ham bir-biriga bog'lagandi. Dastlab asar qahramoni Dorianning hayot yo'liga nazar soladigan bo'lsak, u otasi Jakob, onasi Abigeyl

va akasi Ted bilan Kanadada yashayotgan beg'ubor bolakay edi. Onasining bag'riga boshini qo'yib, qo'ng'iroq sochlari uzra uning qaynoq qo'llari taftini his qilganda undan baxtli inson yo'q edi go'yo. Ammo quvonchli damlar abadiy davom etmas ekan. Abigeylning vafoti oilani parchalab yubordi: aka-ukalar bir-birlarining pinjidan panoh topishdi, ularning otasi esa bu yo'qotishdan keyin butunlay yomon ahvolda qoldi. U farzandlari uchun ikkinchi marotaba oila qurganiga qaramay bu bolalarga zarracha foyda keltirmadi. Ted va Dorian doimo ona mehrga muhtoj bo'lib yashadilar. Bir kuni asosiy vaqtini poyezd relslari bo'yida o'ynab o'tkazadigan bolalarning boshiga taqdir yana bir og'ir musibatni soldi. Hali onasining o'limiga ko'nika olmagan murg'ak bolakay Dorian baxtsiz hodisa tufayli akasini yo'qotdi: ko'z o'ngida akasi Ted poyezd relslari ostida qolib ketdi... Bu judolik Jakobga juda qattiq ta'sir qildi va yomon xotiralar nishonasiga aylanib qolgan Dorianni internatga o'qishga yubordi. Boshiga tushgan voqealar tufayli og'ir ruhiy zarbalar olgan bo'lishiga qaramay Dorian bilimli inson va yetuk mutaxassis bo'lib yetishdi.

Aytishlaricha, tasodiflar tasodifan bo'lmas ekan, ko'rgan-kechirganlari natijasida o'zi tushib qolgan umidsizlik iskanjasi uni o'ziga o'xshagan Farug ismli yigit bilan uchrashishiga sabab bo'ldi. Farug — uning qismati esa mutlaqo boshqacha. Bu yigit tarixiga nazar soladigan bo'lsak, gapni Adriana ismli go'zal serb qizidan boshlaymiz. U Serbiyada taniqli bo'lgan siyosiy arbobning qizi bo'lishiga qaramay o'ta ziyrak, bilimli va jasur qiz edi. Faqat birgina illat uning bejirim fe'l-atvorida aks etib turardi: u bolaligidan bosniyaliklarga nafrat bilan ulg'aydi, oilaviy muhit shuni taqozo etdi. Bir kuni otasining siyosiy mavqeyi uchun bosniyalik musulmonlarning «asl yuzini» ochib beruvchi maqola yozish maqsadida qadim Mostar shahriga keldi. Bu yerda Amin ismli yigit bilan tanishdi. Garchi boshida ancha yotsiraganiga qaramay tez orada ular bir-birlariga ko'ngil qo'yishdi. Juda ko'p qiyinchiliklar, ta'qib va qochishdan so'ng ular Srebrenitsaga yangi hayot boshlash ilinjida ko'chib kelishdi.

Yaproq ustidagi shabnam misoli baxtning umri ham qisqa bo'lar ekan: sovuq va ayovsiz urush ko'lankalari Bosniya davlatini, jumladan, mo'jaz shaharcha Srebrenitsani ham egalladi. Bu urush yosh-u qarini, ayol-u erkakni ajratmadi, mamlakatdagi barcha aholi, ayniqsa, bosniyalik musulmonlar etnik qirg'inbarotga uchradi. Asir tushgan ayollar esa so'z bilan ta'riflab bo'lmaydigan zo'ravonliklarga duchor bo'lishdi. Amin ota-onasini yo'qotdi, yonida faqatgina jondan aziz insoni, sevikli yori Adriana qolgandi. Ammo... ammo urush qurbonsiz bo'lmaydi. Amin Adrianani yaxshiy askarlar changalidan asrab qololmadi. U kech qoldi... Natijada Adriana ayollar lagerida dunyodagi eng qabih insonlar tomonidan turli zo'ravonliklarga duchor bo'ldi. Lagerdagi ayollar jismoniy erkinliklarini boy berganlari yetmaganday ruhiy borliqlarini ham yo'qotishgandi: urush ularning ertangi kunga bo'lgan umidini butkul mahv etdi, ular yashamasdilar, vaholanki o'lolmasdilar ham. Ayniqsa go'zal

ayollar ko'proq jaholatga duchor bo'lardilar. Bir kuni lager kapitani Adriana va yana bir qancha chiroyli ayollarni to'plab «katta xo'jayin» Batkoga ularni «hadya» sifatida olib bordi. Butun siyosiy urushga va dahshatli qirg'inga boshchilik qilayotgan, bularning boshlanishiga sababchi bo'lgan insonlardan biri bo'lgan Batko ne ko'z bilan ko'rsinki, keltirilgan «hadya»larning eng birinchisida o'z qizi Adriana turardi. U aslo o'ylamagandi bu urushning eng katta qurboni o'z farzandi bo'lishini. U qiziga bu yerdan ketishini aytdi-yu, shu zahoti o'zini otib tashladi. Qanchadan-qancha insonlarni o'limga hukm qilganda zarracha achinmagan siyosiy arbob Batko o'zi tufayli qizining or-nomusi barbod bo'lishini, oilasi parchalanib ketishini ko'tara olmadi.

Adriana uzoq yillar davomida davolandi. To'g'ri, jismoniy azoblar o'tib ketgan, jarohatlar tuzalgan bo'lishi mumkin, biroq urush qalbida qoldirgan yaralarni hech nima davolay olmadi. Unga qanchalik og'ir bo'lsa-da Amin doimo uning yonida bo'ldi. Ko'p bora o'z joniga qasd qilmoqchi bo'lgan Adriana Aminni va unga bo'lgan sevgisini deb bunday qilmadi. Taqdirni beshafqatlikda ayblaymiz, ammo ba'zi insonlar undanda yomonroq ekanligini anglamaymiz ba'zan. Ko'rgan-kechirganlari yetmaganday Adriana urush va zo'ravonliklar nishonasi bo'lgan egizak farzandlarni dunyoga keltirdi: Farug va Ma'suma. Oila o'ziga kelish va yangi hayot boshlash uchun Kanadaga ko'chib keldi. Amin bolalarni ajratmadi, ularni begunoh sanab otalik qildi. Adriana esa ularga qanchalik mehr berishga urinmasin qalbidagi nafrat va alam olovini so'ndira olmasdi. Oqibatda to'rt yoshli qizalog'i Ma'sumani sovuq qishda poyezd relslari bilan qoplangan vokzalga tashlab keldi. Oradan biroz vaqt o'tgach qilgan ishidan qattiq pushaymon bo'ldi. Afsuski, endi kech edi... Jajji qizaloqning muzlab qolgan jasadida jabrdiyda onasining qaynoq ko'z yoshlari bilan yuvildi...

Yo'qotishlar qanchalik ko'p bo'lmasin hayot davom etardi. Farug onasining g'amgin va sirli nigohlarini ko'rib ulg'aydi. U tushunmasdi: nima uchun onasi uni bunchalik yoqtirmaydi? Bir kuni uning qo'liga onasining eski kundaligi tushib qoldi va barcha savollarining javobini undan topdi. U endi anglab yetgandi: singlisining o'limiga nima sabab bo'lganini, Amin bilan Adriana o'rtasidagi o'tli muhabbatning qanday qilib bu ahvolga kelganini, onasining ko'zlarida o'ziga nisbatan ko'radigan tubsiz qorong'ulikni...Uzoq yillik kasallikdan so'ng Amin vafot etdi. Bu ayriliq Adrianani o'g'li Farug bilan yanada yaqinlashtirdi. Endi ona-bolaning bir-birlaridan bo'lak suyanadigan insonlari yo'q edi. O'tmishi, kelib chiqishi, nasl-nasabi noma'lum bo'lgan Farugni umidsizlik relslar uzra olib bordi va Dorian bilan uchrashtirdi. Ular relslar uzra chalqancha yotib o'z ajallarini kutar ekanlar, turli mavzularda suhbatlashishdi. Har ikkisi ham ziyoli va bilimli insonlar edi. Ular shunchaki o'z hayotlaridagi qorong'u ranglar iskanjasida qolib ketishgandi. Axir Dorianning ta'biri bilan aytganda:« Hayot faqat bizning unga qanday ma'no berishimizga bog'liq. U faqat biz ko'rgan rangdadir. Kim uchundir oq, yana kim

uchundir qizil, boshqa bittasi uchun kulrang, boshqa birlari uchun esa tamomila qora rangda bo‘ladi». Bo‘lib o‘tganlarning hech birida ular aybdor emasdi. Ular juda ko‘p qiyinchiliklar bilan sinalishdi, hatto o‘limgacha borishdi. Ammo inson yashash uchun hech bir sababim qolmadi deganida ham uni bu hayotga hech bo‘lmaganda bitta rishta bog‘lab turar ekan. Bu rishta Dorian uchun otasi, oilasi yoniga qaytish bo‘lsa, Farug uchun esa Amin unga omonat qoldirgan onasi Adrianani yolg‘iz qoldirmaslik edi.

Xulosa qilib aytganda urush, jaholat va yovuzlik insoniyat boshiga qanchalik ko‘p savdolarini solmasin, iroda, matonat va ezgulik baribir g‘alaba qozonadi. Axir bejiz «Hayot faqatgina balandlikdan sakrashdan iborat» deyishmaydi mostarliklar. Qiyinchiliklar ortidan keladigan yaxshi kunlar doimo insonlarni, xususan, asar qahramonlarini ham yashashga undadi, ularga kuch berdi. Zero, o‘q minglab, millionlab odamlarning jonini olishi, ularni o‘ldirishi mumkin, lekin aslo ruhini emas...

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ravshan Abdullao‘g‘li. «Relslar uzra yotgan odam» (2023) Rahmat Bobojon tarjimasini;
2. Bosniya va Gersogovina – Wikipedia <https://share.google/gyubun7KnrwPpg77V> ;
3. Yugoslaviya ustidagi siyosiy tajriba. Bosniya va Gersogovina urushi saboqlari <https://share.google/V63eoHb0S5l5mIRSB> .